
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 7-8

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL ADABIYOT TA'LIM



Philological research: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 7-8

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.08.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, *iqtisod fanlari doktori, professor*

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, f.f.f.d. *(PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Amonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.08.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, *доктор экономических наук, профессор*

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*

Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*

Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*

Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*

Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*

Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*

Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нормат Юлдашев, *к.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шоира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.08.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, *doctor of economic sciences, professor*

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, PhD, *associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Amonturdieva, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

МАМАТОВ АБДИ ЭШОНҚУЛОВИЧ
Инсон, тил ва маданият триадаси ёки маданият инсонга нима беради? 7

ASHIRBOYEV SAMIXON
«O‘zbek dialektologiyasi» fani ta’limi mazmuni uyg‘unligi 10

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalarning antropotsentrik lug‘atini tuzish tamoyillari xususida 14

МАМАТОВ АБДУҒОФУР
Фразеологик бирлик тушунчаси талқини ва тадқиқи 18

ELTAZAROV JO‘LIBOY
Gramer kategorilerin türkçenin dilsel doğasina göre yorumlanmasi üzerine 24

ISMOILOVA DILRABO MUHAMMAD QIZI,
HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXONOVICH
Ilmiy paradigma transformatsiyasi hamda konseptual asos 30

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH,
MAHMADIYEV SHAVKATJON SUYUNQULOVICH
Matnning pragmatik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar xususida 34

TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA,
JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA
Baho va darajalanish munosabati 38

ABDIYEV MURODQOSIM
«Davlat tili haqida»gi va u bilan bog‘liq qonunlar ijrosi masalalari xususida 44

МЕНГЛИЕВ БАХТИЁР РАЖАБОВИЧ
Ўзбек лингвистик саноати истиқболлари 50

SHUKUROV OTABEK ULASHEVICH
Globallashuv sharoitida milliy til masalalari 56

FAYZIYEVA XADICHA CHORIYEVNA
Surxondaryo o‘zbek shevalarida o‘zlashgan so‘zlar 59

DUSTMURODOV MA’RUFJON MANSUR O‘G‘LI
Qadimgi turkiy tildagi markaziy hokimiyat bilan aloqador ayrim
harbiy unvonlar xususida 63

МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

OSTONOV O‘TKIR YANGIBOEVICH
Qishloq turizmga oid terminlarning lingvistik tahlili 67

TILLABAYEVA ZILOLA RAXMATILLAYEVNA
Samarqand viloyati qarluq shevalarida olmoshlar 70

TEMIROVA KAMOLA
«O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati»da berilgan
gastronomik birliklarning semantik guruhlanishi 74

KURBONMURATOV ABROR
Ekstremistik matnda muallif belgilari 80

NURALIYEV G‘OLIBJON QURBONBOYEVICH
Taqlid so‘zlar orqali ifodalangan tovush va
harakat-holatning davomiylik semasi
(Tog‘ay murod asasrlari misolida) 83

CHORIYEVA CHAROS SALOMOVNA
Diniy leksika, tasavvufiy leksika va mifologik leksika:
tasnif va talqin muammolari 86

NURIDDINOVA NAFISA MUXIDDIN QIZI
O‘zbek tilida ayrim uzumchilikka oid leksikaning lingvokulturema sifatidagi talqini 89

Rezyume. Ushbu maqolada dastlab o‘zbek tilshunosligida turkiy xalqlar shevalarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan salomoqli ishlar tahliliga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, qarluqlar tili va lahjasining kelib chiqqanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Samarqand viloyati qarluq shevalari va o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniluvchi olmoshlarlar to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritilgan. Boshqa hudud shevalari bilan qiyoslangan. Qadimiy yozma yodgorliklar matnida uchraydigan olmoshlar bilan solishtirilgan. Shuningdek, mazkur til birliklari yig‘ilgan materiallar asosida tahlil qilingan.

Resume. This article focuses on the analysis of the good work carried out in uzbek linguistics on the study of the dialects of the turkic peoples. Information about the origin of the karluk language and dialect is also provided. Comments were made about the karluk dialects of the Samarkand region and the pronouns used in the uzbek literary language. Compared with dialects of other regions. Compared with the pronouns found in the text of ancient written monuments. Also, these language units were analyzed based on the collected materials.

Резюме. Данная статья посвящена анализу работы, проводимой в узбекском языкознании по изучению диалектов тюркских народов. Также приводятся сведения о происхождении карлукского языка и диалекта. Были даны комментарии о карлукских диалектах Самаркандской области и местоимениях, используемых в узбекском литературном языке. По сравнению с диалектами других регионов. По сравнению с местоимениями, встречающимися в текстах древних письменных памятников. Также на основе собранных материалов были проанализированы данные языковые единицы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«O‘ZBEK TILI SINONIMLARINING KATTA IZOHLI LUG‘ATI»DA BERILGAN GASTRONOMIK BIRLIKLARNING SEMANTIK GURUHLANISHI

Temirova Kamola,
Termiz davlat universiteti doktoranti

So‘z ma’nosining rivojlanish qonunlarini tekshirish, so‘zlarning omonimlik, sinonimlik, paronimlik, antonimlik va ko‘pma’nolilik xususiyatlarini o‘rganish tilning lug‘at boyligini aniqlashga, turli lug‘atlar tuzish ishlariga katta yordam beradi.[1]

Tilning ifoda rejasida bir-biriga qarama-qarshi holatlarni, miqdoriy o‘lchamlardagi ziddiyatlarni ko‘rish mumkin. Masalan, frazeologizmlar va sinonimiyada ifoda birliklari mazmun birliklaridan ko‘p bo‘lsa, polisemiya va omonimiyada buning aksini ko‘ramiz. Bunda shaklan bir xillikka ega bo‘lgan lug‘aviy birliklar ikki va undan ortiq ma’no bilan ish ko‘radi. Ikki va undan ortiq ma’no bir shaklga to‘g‘ri kelishi hollarini matn bartaraf etadi.[2]

Sinonimlar talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi umumiy bo‘lgan, qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanilishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir. Ana shunday umumiy ma’no bilan o‘zaro bog‘lanuvchi so‘zlar guruhi sinonimik qatorlarni tashkil etadi. Sinonimik qatorlar ikki va undan ortqi leksmalardan iborat bo‘lishi mumkin[3]. Bir so‘z bilan aytganda, sinonim so‘zlar aniq semantik aloqa asosida bog‘langan lug‘aviy birliklarning aniq tizimidir.[1]

[1] Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 66.

[2] Bu haqda qarang: Абдушукуров Б. XI-XIV асрларга оид ёзма манбалар тили [Матн]: Монография. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – Б. 85.

[3] Ҳожиев А.Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 3

Shu ma’noda, leksik-semantik jarayonlar (sinonimiya) umumadabiy tildagi singari biz tadqiq qilayotgan lug‘atlarda uchraydigan gastronomik birliklar tizimida ham ro‘y bergan. O‘rganilayotgan qadimiy va mustaqillik yillarida chop etilgan lug‘atlarda ifodalangan gastronomik leksika o‘rtasidagi leksik-semantik munosabatni tekshirishda har bir asardagi mavjud gastronomik terminlarni hisobga olgan holda yondashdik.

«O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati» hozirgi o‘zbek tili uchun ahamiyatli bo‘lgan sinonimik qatorlarni qamrab olgan. Mazkur lug‘atga leksik sinonimlar, ularning leksikografik izohlari, sinonim qatordagi so‘zlarning ma’no nozikliklari, bu ma’noviy farqlanishlarni dalillovchi, ijobiy-salbiy bahosi hamda uslubiy o‘ziga xosliklarni ko‘rsatuvchi illyustrativ misollar kiritilgan[2].

Ushbu lug‘atdan o‘rin olgan so‘zliklar qatorida gastronomik birliklar ham o‘rin olgan. Jamlangan gastronomik birliklar (taom nomlari, oziq-ovqat mahsuotlari)ni jadval ko‘rinishida, ma’noviy guruhga bo‘lgan tarzda keltirmoqlikni lozim topdik (1-jadval)

1-jadval

«O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati»da keltirilgan gastronomik birliklarning tematikasi

№	Taom nomlari; oziq-ovqat mahsulotlari	ichimliklar	shirinliklar	Degustatsion atamalar (maza-ta’mni bildiruvchi birliklar)	Oshxona jihozlari; uy-ro‘zg‘or buyumlari
1	kabob, shashlik	ichkilik, aroq, sharob, vino, may, musallas, maviz	asal, bol, shahd	achchiq, zahar, zahar-zaqqum	gazo‘choq gazplita
2	osh, palov, palovxonto‘ra	-	-	bemaza, mazasiz, ta’msiz, totsiz, lazzatsiz	elak, g‘alvir
3	go‘sht, et	-	-	maza, ta’m, tot, lazzat	keli, o‘g‘ir, hovoncha
4	ko‘kat, ko‘k	-	-	-	lagan, tovoq
5	lavlagi, qizilcha	-	-	nordon, qimizak, achchiq, turush	mesh, meshkob, sanoch, burduq, to‘rsiq
6	yog‘, moy	-	-	shirin, mazali, lazzatli, laziz, xushta’m, totli, ta’mli, xushxo‘r	qadah, jom, paymona, ayoq
7	piyoz, so‘g‘on	-	-	-	qumg‘on, choydish, chovgun (m), tonqa (tanqa)
8	qalampir, garmdori	-	-	-	
9	Sariyog‘, sarimoy	-	-	-	
10	suzma, chakki zardobi	-	-	-	-
11	yalpiz, hulvo, pidana (pudina)	-	-	-	-

[1] Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнин турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.3

[2] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B.13.

Ta’kidlash joizki, sinonimlarni belgilashda aynan bir xil ma’nolar bir qatorda differensial semantik belgilar ham mutlaq hal qiluvchi o‘ringa ega. Aytish mumkinki, sinonimlarni tavsiflashda, xususan, leksikografik tavsiflashda bevosita differensial semantik belgilarni imkon qadar ko‘proq va xo‘proq tasvirlab ko‘rsatish muhimroq. Yuqoridagi jadvalda keltirilgan gastronomik birliklar hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati nuqtayi nazaridan o‘zaro farqlanishi mumkin, ya’ni sinonimik qatordagi so‘z hozirgi adabiy til normasi doirasida yoki undan tashqarida turishi mumkin, shuningdek, sinonimik qatordagi so‘zlar ma’noni qay darajada ifodalashi jihatidan ham o‘zaro farqlanadi, ba’zi so‘zlar belgini normal (neytral) darajada ifodalasa, boshqalari kuchli yoki kuchsiz daraja bilan ifodalaydi.

Ishimiz obyekti bo‘lgan gastronomik birlik-taom, ovqat leksemasi quyidagi sinonimik qatorni tashkil etadi:

Ovqat, taom, osh, oziq, tomoq, xo‘rak, yemish, ne’mat, yegulik, g‘izo, osh-non Iste’mol qilinadigan, odam, hayvon va o‘simliklar uchun oziq bo‘luvchi tayyor narsa. ***Ovqat, oziq, xo‘rak, yemish, yegulik*** so‘zlari barcha tirik organizmlar, jumladan, odamlardan tashqari hayvonlar, jonivorlar, o‘simliklar ham iste’mol qiladigan narsani bildiradi. *Taom, osh, tomoq va* ne’mat esa odamlar yeydigan narsaga nisbatan qo‘llanadi. *Taom, tomoq, osh, yegulik, yemish* so‘zlarida odamning yeyishi uchunlik ta’kidi aniq bilinib turadi**.** ***Osh*** so‘zi ba’zan ***ovqat*** so‘zi bilan ***osh-ovqat*** tarzida juft holda ham qo‘llanadi. ***Taom, ne’mat*** so‘zlari badiiy uslubga, tomoq so‘zi so‘zlashuv uslubiga xos. ***G‘izo*** so‘zi esa eskirgan, ma’no juhatdan ***ozuqa*** so‘ziga yaqin. ***Osh-non*** juft so‘zi so‘zlashuv tilida faol qo‘llanadi, mazkur ma’no birmuncha umumlashgan holda ifodalanadi.

Bir kuni uy Bekasi mendan cholga kechki ovqat chiqarib berishni iltimos qilib qilib qoldi. N.Eshonqul, Maymun yetaklagan odam[1].

Quyida jadvaldan o‘rin olgan gastronomik birliklarning har birining izohiga to‘xtalib o‘tamiz.

I. **Taom nomlari; oziq-ovqat mahsulotlari.**

kabob,shashlik – asosan, go‘shtni sixga tortib, ko‘raga terib, cho‘g‘ damda pishiriladigan, shuningdek, tandirda ham, qozonda ham tayyorlanadigan taom. *Shashlik* so‘zlashuv nutqida faol qo‘llanadi.

Shu yerdan o‘tayotib, kabob hidi dimog‘iga urilibdi-da, kabobxonaga ko‘tarilibdi. O‘.Umarbekov, Odam bo‘lish qiyin. *Shashlik-sixlik tansiq taom ekanini avval aytib o‘tgan edik.* K.Mahmudov, O‘zbek tansiq taomlari. *Yaponlar delfin go‘shtidan sho‘rva, shashlik tayyorlaydilar, ba’zan esa delfinlarni xomligicha ham tanovul qiladilar. Gazetadan.*[2]

osh, palov, palovxonto‘ra – piyoz, go‘sht, sabzini qovurib, so‘ng qaynatib, unga guruch solib, pishiriladigan o‘zbek milliy taomi. *Osh, palov* so‘zlari nutqda ishlatiladi. Mazkur so‘zdan so‘zlovchining ijobiy munosabati anglashiladi.

Boshqa paytlarda otinoyi to‘ygami, ma’rakagami chiqib ketar, allapallada bir sovigan osh, bir kosa moxora, bir chekkasi ushatilgan qatlama olib kelib, o‘rtaga qo‘yar edi……O‘.Hoshimov, O‘zbeklar; *Nima qilasan, ovqat qilib?! Mana, ko‘ryabsanmi, bir qozon palov damlog‘lik turibdi.* S.Ahmad, Qishdan qolgan qarg‘alar[3].

go‘sht, et so‘yilgan jonivor tanasining ovqat sifatida iste’mol qilinadigan qismi. *Et* so‘zida eskililik bo‘yog‘i mavjud, kam qo‘llanadi.

go‘shtli, sergo‘sht Ichida go‘shti bor; go‘sht solib tayyorlangan yegulik. Sergo‘sht so‘zida go‘shti ko‘plik ma’no ta’kidi mavjud.[4]

ko‘kat, ko‘k – bahorda yangi chiqqan, somsa, chuchvara kabi ovqatlarga ishlatiladigan otquloq, yo‘ng‘ichqa, ismaloq, yalpiz kabi o‘t-o‘lanlar yoki kashnich, ukrop, ko‘k piyoz kabilarning umumiy nomi. *Ko‘k* so‘zi shu ma’noda oddiy so‘zlashuvga xos. Misollar: *Binafsha qovurdoqni chiroyli laganga suzib, atrofini ko‘katlar bilan bezatib, dasturxonga olib kelib qo‘ydi.* Sh.Boshbekov, Falakning gardishi[5].

lavlagi, qizilcha – ildizmevasi ozuqa bo‘ladigan, ovqatga solinadigan sabzavot. *Lavlagi* bu sabzavotning barcha turini anglataveradi. *Qizilcha* shevaga oid so‘z, asosan, lavlagining katta-katta bo‘lib yetiladigan xilini bildiradi.

Lavlagi shirin narsa-yu, har kuni yegandan keyin jonga tegadi. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari[6].

qalampir,garmdori – achchiq mevasi ovqat bilan iste’mol qilinadigan o‘simlik. *Qalampir, garmdori* adabiy tilda ham, shevalarda ham faol qo‘llanadi.

Undan so‘ng xuddi shunday tartib bilan pomidor, bodring, kartoshka, loviya, bulg‘or qalampir, achchiq

[1] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. II tom. – B. 468.

[2] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 281.

[3] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 480.

[4] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 216.

[5] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 344.

[6] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 364.

jaydari qalampir ekilgan. A.A'zam, Odamning olasi[1].

sariyog', sarimoy – asosan, mol sutidan ajratib olingan yog'. *Sarimoy*-shevaga va og'zaki nutqqa xos so'z.

Samarqand danagi…Sariyog', qazi shunday ustalik bilan parrak qilib to'g'ralgan ediki, biron joyida pichoq tirnab ketgan g'adiri ko'rinmasdi. O'lmas Umarbekov, Odam bo'lish qiyin [2]

suzma, chakki zardobi sizib chiqqan qatiqdan hosil bo'lgan sut nahsuloti. *Chakki*-shevaga xos so'z.

Yaylovdagi qirg'iz o'tovida tunab qolishga to'g'ri keldi. Qimiz ichdik, suzma yedik. O'.Hoshimov, Dunyoning ishlari[3].

yalpiz, hulvo, pidana (pudina) Tibbiyot sohasida, oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan xushbo'y ko'pyillik o'tsimon o'simlik. *Yalpiz* so'zi uslub jihatdan betaraf. *Hulvo, pidana* so'zlari shevalarda ishlatiladi. *Pidana* so'zi ayrim shevalarda *pudina* shaklida ham uchraydi.

Men hali tug'ilmasimdan burun Nusa xola bilan eri Sadir tog'a qish ichi biznikida turishganini, yalpizlar quloqlay boshlagan pallada ikki ko'tarim chiqib-chiqmaydigan ko'chini yig'ib, yangi yerlar o'zlashtirilayotgan cho'lga ketishgach, o'zlariga kichik bir kulba qurib olishganini eshitgandim. A.Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak.[4]

yog', moy – chorva mollari, o'simliklar, sut mahsulotlaridan olinadigan, suvda erimaydigan modda. *Yog' s*o'zi uslub jihatdan betaraf. Moy so'zi ko'proq oddiy so'zlashuvda ishlatiladi.

Kerak bo'lganda, mingboshi Miryoqubdan pul so'rab olar, un, gurunch, go'sht, yog' va ro'zg'orning boshqa keraklarini…Miryoqub tayyorlab berar, shu uchun jonning rohatidan boshqani bilmagan mingboshi undan narisini surishtirmas edi. Cho'lpon, Kecha va Kunduz[5]…

II. **Shirinliklar. Asal, bol, shahd –** o'simliklar gulidagi shiraning ishchi asalarilar organizmida qayta ishlanishidan hosil bo'ladigan shirin, suyuq oziq mahsuloti.

Bol so'zi ma'nosida shirinlik darajasi ortiqroq ta'kid olgan. *Shahd* so'zi esa eskirgan, poetik nutqqa qo'llaniladi. Misollar: *Oltita sedonali non, shisha bankada asal ko'tarib, ordenlarini jaranglatib, xandon -xushon Normat kirib keldi*. S.Ahmad, Azob. *Sensiz tomog'imdan choy tugul, bol ham o'tmasligini bilmaysan go'yo.* O.Yoqubov, Bir koshona sirlari.. La'lining bir-bir hadisi *shahd*dek shirin erur, Oe-ore, doyimo gul bargidindur angubin, Navoiy.[6]

III. **Degustatsion atamalar (maza-ta'mni bildiruvchi birliklar)**

achchiq, zahar, zahar-zaqqum – ta'mi og'iz-tilni achitadigan, lovullatadigan. *Zahar* va *zahar-zaqqum* so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanganda shunday ifodani anglatadi. Qatordagi so'zlarda achchiqlik belgisi darajama-daraja kuchayib boradi. *Zahar* so'ziga qaraganda *zahar-zaqqum* so'zida belgi kuchli. Ayni paytda, zahar-zaqqum so'zining qo'llanish doirasi kengroq.

Misollar: *Serqalampir achchiq sho'rva ichib, o'ralib yotsa tuzalib ketadiggan narsa-ku, bu.* S.Ahmad, Kiprikda qolan tong; *Ovqating namuncha zahar, qalampirni kilolab soldingmi, qizim, norozilandi Salima xola*. Mirmuhsin, Tanlangan asarlar; *Qalampir sho'rvani zahar-zaqqum qilibdi*. Gazetadan.[7]

bemaza, mazasiz, ta'msiz, totsiz, lazzatsiz – og'izga xush yoqmaydigan, ta'mi yomon. *Ta'msiz* so'zi ma'nosida biror-bir ta'mga ega emaslik ta'kidi mavjud. *Totsiz* so'zida mazasizlik belgisi mazasiz, ta'msiz so'zlariga qaraganda ochiq ifoda topadi. *Lazzatsiz* so'zida, umuman, huzur bermaydiganlik ta'kidi, «lazzatlanish hissini hosil qilmaydigan» ifodasi yaqqol ifodalangan, bu so'z anchayin kam qo'llanadi.

Misollar: *Tirikchilik boshimizga tushgandan keyin hammasini bila boshladik. Eng bemaza, eng arzon sho'rva-shultini qaynatish uchun igna bilan quduq qazish kerak.* Oybek, Tanlangan asarlar; *Turobjon qizardi. U bir zamon betob o'rtog'ini yo'qlab eltgan tarvuzi bemaza chiqqan bo'lsa kerak, sigirning oxirida ko'rib shunday xijolat bo'lgan edi.* A.Qahhor, Anor; *Shu sababli og'izda eriydigan eng a'lo go'shtlar ham Fotima Sultonga ilitma ovqatdek mazasiz tuyulardi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar; *Bitta choy quyib ber. Buxoroning ta'msiz suvini ichaverib tinkam quridi. S.Ahmad, azroil o'tgan yo'llarda.* T.Malik, Shaytanat; *U qahvaxonaning tansiq taomi- negadir qizil sabzi qo'shib damlanadigan totsizroq palovni ham maqtay-maqtay oxirigacha tushiradi.* E.'A'zam, Shovqin; *Mashaqqatsiz taom lazzatsiz bo'lar*. Maqol.[8]

[1] O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. II jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. II tom. – B. 9.

[2] O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. II jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. II tom. – B. 104.

[3] O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. II jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. II tom. – B. 141.

[4] O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. II jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. II tom. – B. 264.

[5] O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. II jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. II tom. – B. 308.

[6] O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 57.

[7] O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 91.

[8] O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 122.

maza, ta’m, tot, lazzat 1. Yegulik, ichgulik narsalarning yeb, ichib yoki yalab ko‘rib bilinadigan xususiyati. ***Ta’m*** so‘zi oddiy so‘zlashuvda ham, kitobiy uslubda ham faol qo‘llanadi. ***Tot*** so‘zi bu ma’noga «shirin ta’mga egalik» belgisini qo‘shib ifodalaydi, kitobiy uslubga xos, poetik bo‘yoqdor so‘z. ***Lazzat*** so‘zida «shirin ta’mga egalik» belgisi tot so‘zidan ham kuchli darajada ifodalanadi, kitobiy uslubga xos, poetik bo‘yoqdor so‘z.

Oling mazasini ko‘ring, tasadduq. O‘.Umarbekov, Saylanma. – *Qani, shirchoy sovimasin. Patir qaynoqligida to‘g‘ranglar, mazasi boshqacha bo‘ladi.*S.Ahmad, Umrim bayoni[1].

nordon, qimizak, achchiq, turush – tishni qamashtirib, og‘izni burishtiruchi. *Nordon* va *qimizak* so‘zlari ushbu ma’noda ta’mga nisbatan ishlatiladi. *Nordon* so‘z keng qo‘llanadi. Bosh ma’nosi «og‘izni achitib lovullatadigan» tarzida bo‘lgan achchiq so‘zi bu ma’noda nisbatan kamroq ishlatiladi. *Turush* shevaga xos so‘z.

Turgan sari yumsharib, pisha boradigan va pishgan vaqtida og‘izga solsa, eriydigan noklar… Quvaning yirik donali va nordon anorlari…Cho‘lpon, Kecha va Kunduz[2].

shirin,mazali,lazzatli, laziz, xushta’m, totli, ta’mli, xushxo‘r – mazasi (ta’mi) yoqimli. *Mazali* so‘zida mazkur ma’no ifodasida umumiylik mavjud. *Lazzatli, laziz* so‘zlarida maza, ta’m belgisi kuchli ifodalangan, ko‘proq kitobiy. *Totli, xushxo‘r* so‘zlari nisbatan kam qo‘llanadi, *xushxo‘r* so‘zida suyib yeyiladigan ta’kidi mavjud. *Ta’mli* so‘zi ko‘pincha so‘zlashuv nutqida qo‘llanadi.

So‘ngra har kim o‘z ulushini shirin choyga qo‘shib pok-pokiz tushirarkan, ona «to‘ymay qolishmasin», deya har ehtimolga qarshi tag‘in non isitmoqqa tutinardi. U.Hamdam, Muvozanat. [3]

IV. **Oshxona jihozlari; uy-ro‘zg‘or buyumlari**

elak, g‘alvir Un, don vashu kabi mahsulotlarni elash uchun ushlatiladigan ro‘zg‘or buyumi. Nutqda bu ma’noni ifodalashda, asosan, elak so‘zi faol ishlatiladi. *G‘alvir* so‘zi shevalarda uchraydi. *Elak* un va shunga o‘xshash tuyilgan narsalarni elash uchun, *g‘alvir* guruch, bug‘doy singari tuyilmagan narsalarning saragini sarakka, puchagini puchakka ajratish uchun ishlatiladi. *Elakdan un elandi, Supra unga belandi.* Topishmoq; *U eshik oldidagi supada, oldida bir g‘alvir mayiz,cho‘pini terib o‘tirgan edi.* A.Qahhor, Dahshat.[4]

gazo‘choq,gazplita – gaz yordamida choy va ovqat tayyorlashga mo‘ljallangan uy jihozi. *Gazo‘choq* bu ma’nodan tashqari gazplitaning dimlama qismi ma’nosida ham ishlatiladi.[5]

keli, o‘g‘ir, hovoncha jo‘xori, bug‘doy va boshqa donli mahsulotlarini tuyish uchun g‘o‘la ichini o‘yib maxsus tayyorlangan, dastali uy-ro‘zg‘or buyumi. *Keli va o‘g‘ir* so‘zlari nutqda bir-birining o‘rnida almashib qo‘llana oladi. *Hovoncha* so‘zida kichiklik ta’kidi ochiq ifodalangan. [6]

lagan, tovoq – asosan quyuq taomlar solish uchun mo‘ljallangan, likobchadan katta yassi idish. *Tovoq* so‘zi bu ma’noda shevaga xos.

To‘ylarda laganmi, piyolami yo‘qolsa, sepkilli xolaning uyidan topishar, xola «esidan chiqib» uyga olib kelgan bo‘lardi. O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari[7].

mesh, meshkob, sanoch, burduq, to‘rsiq – teridan qilinib, suv, qimiz kabi suyuq narsalar quyib qo‘yiladigan, saqlanadigan idish. *Sanoch, to‘rsiq* nutqda o‘z sinonimlariga qaraganda kamroq qo‘llanadi, eskirgan, kitobiy uslubga xos. Asl ma’nosi «meshda suv tashuvchi yoki sotuvchi odam» bo‘lgan meshkob so‘zi ham ayrim hollarda mazkur ma’noda qo‘llanadi. H*asanali ko‘rindi, qo‘lida bir mesh qimiz ko‘targan edi, darichadan turib mehmonlarni «xush kelibsiz» qildi…*A.Qodiriy, O‘tkan kunlar[8].

qadah, jom, paymona, ayoq – sarxush qiluvchi ichimlik quyib ichiladigan idish. *Jom, paymona* poetik nutqqqa xos, kitobiy xoslangan. *Ayoq* eskirgan, mumtoz adabiyotda qo‘llanadi.

Misollar: *Qadahlar jaranglaydi. Kelin-kuyovning salomatliklari uchun ko‘tarilgan qadahlar o‘z kuchini ko‘rsatdi.* S.Ahmad, Ufq; *Iloyo, boshimizga kelmasin qaro kunlar, O‘zbegim, deb ko‘taring, do‘stlarim oltin jomni.* A.Oripov, O‘zbegim davlati; *Paymona sharobga to‘ldimi? To‘ldi…Qalbda esa o‘sha og‘ir ko‘lanka.* I.Mirzo, Ko‘lanka; *Bahor faslidiru may havosi bo-*

[1] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 390.

[2] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 435.

[3] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. II jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. II tom. – B. 364.

[4] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 178.

[5] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 207.

[6] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 303.

[7] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 358.

[8] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 397.

shimda, Ayoq tut manga , soqiyki, xush havoyidiur. Bobur[1].

qumg‘on, choydish, chovgun (m), tonqa (tanqa) Ko‘zasimon dastali va qopqoqli m, choy qaynatish uchun ishlatiladigan idish. *Choydish, choygun* so‘zlarida choy qaynatishga daxldorlik ta’kidi ochiqcha aks etgan. *tonqa* – shevaga xos so‘z.

V. **Ichimliklar**

ichkilik, aroq, sharob, vino,may,musallas, maviz – kayf beradigan ichimlik, spirtli ichimlik. *May, musallas, sharob, maviz* so‘zlari, asosan, eskirgan, ko‘proq kitobiy nutqqa xos. Misollar:

Nihoyat shirin maydan bir qadahchaga to‘dirib, uning oldiga qo‘ydi. O‘zi yarim qadah araq quydi. O‘lmas Uarbekov, Odam bo‘lish qiyin; *Ikki gulgun chera bo‘lsa, O‘rtada gulgun sharob, Men uchun maydin ham ortiq Suhbati hamdam shirin.* Erkin Vohidov, Saylanma[2].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, sinonimik qatorni hosil qilgan so‘zlar uslubiy, hissiy-ta’siriy, zamon nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlanadi. O‘z o‘rnida sinonim Gastronomik birliklar sinonimiyasidan nutq vaziyatini hisobga olgan holda o‘rinli foydalanish har bir madaniy nutq sohibining nutqiy mahoratini ko‘rsatadi.

Rezyume. Gastronomiya oziq-ovqat tayyorlash va inson ovqatlanishining hissiy fazilatlarini kashf etish, tatib ko‘rishni o‘z ichiga oladi. Gastronomiya obyekti – gastronomik birliklar – taom nomlari, oziq-ovqat mahsulotlari tarixiy ahamiyatga ega. Ularning ma’no xususiyatlarini lug‘atlar orqali bilib o‘rganishimiz mumkin. Ushbu maqolamizda «O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati» dan o‘rin olgan gastronomik birliklarning semantik tomondan tavsiflanishiga to‘xtalib o‘tganmiz.

Resume. Gastronomy includes food preparation and discovering and tasting the sensory qualities of human nutrition. Object of gastronomy - gastronomic units - food names, food products are of historical importance. We can learn their meaning through dictionaries. In this article, we have focused on the semantic description of gastronomic units from the «Large explanatory dictionary of synonyms of the Uzbek language».

Резюме. Гастрономия включает в себя приготовление пищи, а также обнаружение и дегустацию сенсорных качеств человеческой пищи. Объект гастрономии – гастрономические единицы – названия продуктов питания, продукты питания имеют историческое значение. Мы можем узнать их значение с помощью словарей. В данной статье мы остановились на семантическом описании гастрономических единиц из «Большого толкового словаря синонимов узбекского языка».

[1] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. II jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. II tom. – B. 7.

[2] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild/ N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. I tom. – B. 264.